

HP BUKHARA
HAND PRINT

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI
VA XORIJIY TAJRIBALAR



**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM KAFEDRASI**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA XXI ASR
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI:
5 E MODEL, YANGI AVLOD DARSLIKHLARI
VA XORIJIY TAJRIBALAR**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI



**2025-YIL
21-NOYABR**



**IEA
TIMSS**

**IEA
PIRLS**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

**“BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI
AVLOD DARSLIK LARI VA XORIJIY TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIAL LARI

2025-yil, 21-noyabr

Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

B.B. Ma‘murov	–	Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
Z.M. Muqimov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini;
G.R. Akramova	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.M. Tilavova	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
R.A.Qo‘ldoshev	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
Y.Y.Azimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
N.O.Safarova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
G.E.Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
F.N. Abdullayeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.R.Akramova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
M.N. O‘rinova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;

Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

Z.M. Muqimov	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;
G.R. Akramova	–	Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, rais muovini;
J.S.Aminov	–	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo;
M.M. Tilavova	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
R.A.Qo‘ldoshev	–	Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo;
M.J. Saidova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, a‘zo;
F.M.Qosimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
Y.Y.Azimov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası professori, a‘zo;
F.S.Safarov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
S.R.Akramova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
N.B. Adizova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
R.X.Jumayev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, a‘zo;
I.D.Axrorov	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
B.N.Yuldashev	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
D.N.Xayrullayeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
Z.I.Usmonova	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
N.O‘.Xudoyberdiyeva	–	Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.

To‘plam Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘iga asosan 2025-yilning 21-noyabr kunida **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5 E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas‘ul muharrir:

M.J. Saidova - pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.R. Adizov - pedagogika fanlari doktori, professor

G.V. Izbullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDA LOYIHALASHGA DOIR TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Haydarqulova Mahliyo Zafarovna

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida loyihalashga doir topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati, ularning o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, loyihaviy topshiriqlarning fanlararo integratsiya, o‘z-o‘zini baholash va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishdagi roli tahlil etilgan. Maqolada loyihalash topshiriqlari orqali ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari va pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: loyihalash, boshlang‘ich ta‘lim, ijodkorlik, kompetensiya, mustaqil fikrlash, integratsiya, metodika.

Hozirgi kunda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor va hayotiy muammolarni hal eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bunday yondashuv, avvalo, ta‘lim jarayonida an‘anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra o‘quvchini faol ishtirok etishga undaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Shunday samarali usullardan biri loyihalash faoliyatidir. Loyihalash faoliyati o‘quvchini bilimlarni o‘zlashtiruvchi emas, balki ularni qo‘llovchi va amaliyotga tatbiq etuvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davrida bu yondashuv o‘quvchilarning tafakkurini, qiziqishini va o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun loyihalash topshiriqlari odatda sodda, tushunarli va hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning atrof-muhit, jamiyat, oila, maktab hayoti bilan bog‘liq muammolarni ko‘rish, ularni tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, “Sinf kutubxonasini tartibga solamiz”, “Tabiatni asraymiz”, “Suvni tejash yo‘llarini o‘ylaymiz” kabi loyihalar orqali bolalar nafaqat bilim oladi, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llashni ham o‘rganadi. Bunday topshiriqlar ularni ijodkorlikka, tashabbuskorlikka va jamoaviy ishlashga o‘rgatadi.

Loyihalash topshiriqlari orqali o‘quvchi o‘z bilimini chuqurlashtiribgina qolmay, balki ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini izlaydi. Shu jarayonda o‘quvchi mustaqil fikr yuritadi, muammoga turli yo‘nalishlardan qaraydi, natijada ijodiy fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Har bir loyiha o‘quvchidan rejalashtirish, tahlil qilish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, natijani baholashni talab qiladi. Bu esa unda mas‘uliyat, mehnatsevarlik va o‘z-o‘zini nazorat qilish madaniyatini shakllantiradi. Loyihalar bilan ishlash asosida o‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik, fikr almashish, bir-birining fikrini hurmat qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoada ishlash jarayonida o‘z fikrini erkin bayon etishni, boshqalarning g‘oyalariga baho berishni, kelishilgan qaror qabul qilishni o‘rganadi. Natijada ular muloqot madaniyatini egallaydi, ijtimoiy faol, ochiq fikrli shaxs sifatida shakllanadi.

Loyihalash topshiriqlari o‘quvchilardan mustaqil qaror qabul qilishni, yangi g‘oyalarni ilgari surishni va o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni talab qiladi. Natijada o‘quvchilar o‘z bilimlarini ijodiy tarzda qo‘llashni, muammolarga yangicha yondashishni o‘rganadi. Bu jarayon ularning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Loyihalash topshiriqlari o‘quvchilarning o‘z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini yaratadi. “Maktab atrofini obodonlashtirish” yoki “Suvni tejash yo‘llari” kabi loyihalar o‘quvchilarga ekologik madaniyat,

mehnatsevarlik va ijtimoiy mas'uliyatni singdiradi. Bu esa ta'limni hayot bilan bog'laydi. Ko'pgina loyihalar guruhda bajariladi, bu esa o'quvchilarda muloqot, hamkorlik, o'z fikrini aniq ifoda etish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunday topshiriqlar orqali bolalar o'zaro hurmat, mas'uliyat va tinglash madaniyatini o'zlashtiradi.

1-sinf dan boshlab, ko'plab mustaqil topshiriqlar asosida o'quvchilarning loyiha asosida ishlash malakalari shakllanadi. 1-sinf o'qish savodxonligi darsligida quyidagi topshiriqlar bor: zanjir ko'rinishida berilgan so'zlardan keraklilarini tanlab maqolni o'qish; berilgan raqamlarni alifbodagi mos harflar bilan almashtirib hosil bo'lgan so'zlarni topish; berilgan so'zlarning bitta harfini o'zgartirib yangi so'zlar hosil qilish; juftini top topshirig'i, bunda o'quvchilar ma'nosi yaqin so'zlarni bir-biri bilan juftlashtiradi; doiralar ichidagi bo'sh joylarni to'ldirib yashiringan so'zni topish; o'rni almashgan bo'g'inlarni joyiga qo'yib so'zlarni to'g'ri o'qish; unli harflardan mosini qo'yib gapni o'qish; rasmlarni so'zlar bilan almashtirib gaplar hosil qilish; yetishmayotgan so'zlarni qo'yib matnni hosil qilish kabi. 2-, 3- va 4- sinflarda bunday ko'rinishdagi topshiriqlar biroz murakkablashadi va yanada ko'proq foydalaniladi.

Loyihalarga asoslangan topshiriqlarni faqat o'qish savodxonligi darslarida emas balki boshqa fanlarda ham uchratishimiz mumkin: Ona tili darsligida- o'quvchilar kichik loyiha shaklida "Mening oilam", "Mening maktabim" mavzusida matn tuzish, taqdimot tayyorlash kabi ijodiy ishlarni bajaradi. Matematika fanida- misollarni real hayot bilan bog'lash, grafik, jadval tuzish, jamoada ishlashni rag'batlantirish. Tabiiy fan darslarida «Atrof-muhitni asraymiz» mavzusida loyiha: kuzatish, fotosurat olish, guruh bilan hisobot tayyorlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun loyihalash topshiriqlari ularning yosh xususiyatlariga mos, qiziqarli, oson tushunarli va amaliy bo'lishi zarur. O'qituvchi bunday topshiriqlarni tanlashda o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishi lozim. Shuningdek, loyihani baholash jarayonida faqat yakuniy natijani emas, balki o'quvchining izlanish, hamkorlik va ijodiy fikrlash jarayonini ham e'tiborga olish muhim. Bu yondashuv har bir bolada muvaffaqiyatga erishish hissini uyg'otadi, o'ziga ishonchini mustahkamlaydi va ta'limga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf darsliklarida loyihalashga doir topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim shart-sharoit yaratadi. Bu usul ta'limni faollashtiradi, o'quvchini mustaqil, mas'uliyatli, ijodkor va amaliy fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Loyihaviy faoliyat orqali o'quvchi bilimni egallaydi, uni tahlil qiladi, hayotda qo'llash yo'llarini topadi va natijada o'z o'rganish faoliyatining egasiga aylanadi. Shu sababli loyihalash topshiriqlari zamonaviy ta'limning ajralmas qismi, boshlang'ich ta'limda esa o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali o'quvchilar 21-asr ko'nikmalarini – tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini egallaydi. Shu sababli loyihalash metodini boshlang'ich ta'limda qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Boshlang'ich ta'lim Davlat standarti. – Toshkent, 2021.
3. 1-sinf o'qish savodxonligi darsligi. – Toshkent, "Novda" 2023.
4. Jumayeva H.G'. Loyihaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi. (PhD) diss. avtoreferati. Buxoro, 2024.
5. Haydarqulova M.Z. Ta'lim mazmunini loyihalashning ahamiyati // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, 11-son.
6. Haydarqulova M.Z. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim mazmunini loyihalashga o'rgatish. "Ta'lim va innovatsiyalar" jurnali 2024, 10-son.
- 7.

BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL YECHIMLARI <u>Idiyeva Gulchehra Izomovna</u>	22
BOSHLANG‘ICH SINF DARSLIKLARIDA LOYIHALASHGA DOIR TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <u>Haydarqulova Mahliyo Zafarovna, Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna</u>	26
“OILA PEDAGOGIKASI” FANI ASOSIDA TALABALARDA OILAVIY QADRIYATLARGA IJOBIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH <u>Hamdamova Sitara Rustam qizi</u>	29
ZAMONAVIY TA‘LIM TIZIMIDA BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING PEDAGOGIK AFZALLIKLARI <u>Erkinov Ramziddin Tulqin o‘g‘li</u>	32
BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TA‘LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI <u>S.B. Abdullayeva</u>	35
CHET TILINI O‘QITISHDA O‘RGANUVCHILARNING GAPIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA DUCH KELADIGAN AYRIM MUAMMOLAR <u>Abdurahmonova Mahfuza Olimovna</u>	38
ANTROPOSENTRIK-PARADIGMATIK ASOSDA NUTQIY AKTLAR TIZIMINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH <u>Akramova Surayyo Renatovna</u>	42
BO‘LAJAK KURASH MURABBIYI KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI <u>Aslonov Nasillo Sharifovich</u>	43
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI <u>D.N.Xayrullayeva, Sultonova Sevinch Doston qizi</u>	45
MASOFAVIY TA‘LIM SHAROITIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA‘LIMINI TASHKIL ETISH <u>Kasimov Firdavs Fayzullo o‘g‘li</u>	47

**“BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI: 5 E MODEL, YANGI
AVLOD DARSLIKLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

2025-yil, 21-noyabr

Muharrir: F.Usmonov
Texnik muharrir: B.Ashurov
Musahhih: M.Kuziyeva
Sahifalovchi: X.Axrоров

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 20.11.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 28,75. Adadi 100. Buyurtma № 216.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.



“BUKHARA HAMD PRINT” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy